

“3D MODELLASH” tanlovini o‘tkazish to‘g‘risidagi NIZOM

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1 Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasida o‘tkaziladigan barcha turdagi Kompyuter muhandisligi musobaqalarini tashkil etish, boshqarish va o‘tkazish uchun umumiy qoidalarini belgilaydi.

1.2 Nizom musobaqaning barcha bosqichlari va yo‘nalishlarida qat’iy amal qilinadigan asosiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi. Musobaqaga oid barcha qo‘shimcha reglamentlar ushbu nizomga zid bo‘lmasligi lozim.

Nizom quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

- 16 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston fuqoralari o‘rtasida ilmiy-texnik ijodkorlikni rivojlantirish va texnologiyaga qiziqishni oshirish;
- innovatsion texnologiyalarni targ‘ib qilish;
- O‘zbekiston yoshlarini xalqaro maydonda tanitish uchun tayyorlash.

1.4 Ushbu nizomda ko‘rsatilmagan barcha masalalar musobaqa reglamentlari orqali tartibga solinadi.

2. MUSOBAQA TASHKILOTCHILARI

2.1 Musobaqani tashkil etish va boshqarish uchun maxsus Tashkiliy Qo‘mita tuziladi.

Tashkiliy Qo‘mita quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- musobaqa reglamentlarini tasdiqlash;
- hakamlar hay‘atini shakllantirish;
- musobaqaning texnik va tashkiliy masalalarini hal etish;
- hikoyatlar va apellyatsiyalarni ko‘rib chiqish.

2.3 Tashkiliy Qo‘mita o‘z faoliyatida mustaqil bo‘lib, barcha qarorlar yakuniy hisoblanadi.

3. MUSOBAQA ISHTIROKCHILARI

3.1 Musobaqada kompyuter muhandisligi va 3D modellash texnologiyalariga qiziquvchilar (O‘zbekiston fuqoralari) qatnashishi mumkin.

3.2 Ishtirokchilar musobaqada qatnashish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari shart.

3.3 Har bir ishtirokchi ushbu nizom va musobaqa reglamentlariga amal qilish majburiyatini oladi.

3.4 Ushbu tanlovning avvalgi mavsumlarida 1, 2 va 3-o‘rinlarni egallagan g‘oliblar musobaqada ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. MUSOBAQA O‘TKAZISH TARTIBI

4.1 Musobaqalar Tashkiliy Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan reglament asosida ikki bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich: saralash bosqichi - ishtirokchilar o'rtasida texnik salohiyati va ko'nikmalarini baholash orqali keyingi bosqich ishtirokchilari saralanadi.

1-bosqich Toshkent arxitektura – qurilish universitetida tashkil etiladi;

2-bosqich; final bosqichi hisoblanadi, bu bosqichda asosiy vazifalar bajariladi va natijada g'oliblar aniqlanadi.

4.2 Ishtirokchilar va tomoshabinlar musobaqa hududida Tashkiliy Qo'mita tomonidan belgilangan qoidalarga rioya qilishlari shart.

4.3 Musobaqa maydoniga faqat Tashkiliy Qo'mita ruxsat bergan shaxslar kirishi mumkin.

5. HAKAMLAR HAY'ATI

5.1 Hakamlar hay'ati Tashkiliy Qo'mita tomonidan shakllantiriladi va musobaqa davomida qoidalarining bajarilishini nazorat qiladi.

5.2 Hakamlar hay'ati quyidagi vazifalarni bajaradi:

- qoidalarga rioya etilishini ta'minlash;
- bahsli holatlarda yakuniy qaror qabul qilish;
- ishtirokchilarning talablarga muvofiqligini baholash.

5.3 Hakamlar qarori yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

6. SHIKOYATLAR VA APellyATSIYA

6.1 Ishtirokchilar Tashkiliy Qo'mitaga shikoyatlarni yozma shaklda taqdim etishlari mumkin.

6.2 Shikoyatlar musobaqa bosqichi yakunidan 15 daqiqa ichida topshirilishi lozim.

6.3 Apellyatsiyalar Tashkiliy Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

7. TAQIQLANGAN HOLATLAR

7.1 Quyidagi harakatlar qat'iy qat'iyan taqiqlanadi:

• oldindan tayyorlangan va internet tarmoqlaridan olingan tayyor materiallardan foydalanish (anturaj, staffaj, tekstura va shriftlar bundan mustasno);

• Tashkiliy Qo'mita ruxsatisiz boshqa shaxslar yordamidan foydalanish;

• Musobaqa jarayonida mobil aloqa vositalaridan va internet tarmoqlaridan foydalanish

• musobaqa ishtirokchilariga bevosita va bilvosita xalaqit berish;

• Tashkiliy Qo'mita ruxsatisiz maydonga kiritilmagan uskunalardan foydalanish;

• topshiriqlarni bajarish jarayonida AutoCAD dasturidan boshqa dasturiy vositalardan foydalanish;

- spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar iste'mol qilish yoki musobaqa hududiga olib kirish;
- turli xil hayvonlarni musobaqa hududiga olib kirish;
- binolar hududida va boshqa taqiqlangan joylarda chekish;
- musobaqa qatnashchilari va tomoshabinlari uchun xavf tug'diruvchi har qanday harakat yoki harakatsizlik;
- ma'muriyat ruxsatisiz xizmat hududlariga kirish.

7.2 Ushbu qoidalarini buzgan ishtirokchilar yoki tashrif buyuruvchilar diskvalifikatsiya (chetlashtirish) qilinadi va hududdan chiqarib yuboriladi.

8. XAVFSIZLIK VA TARTIB

8.1 Musobaqa davomida xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish kerak.

8.2 Ishtirokchilar va tomoshabinlar musobaqa hududida Tashkiliy Qo'mita ko'rsatmalariga amal qilishlari shart.

8.3 Tashkiliy Qo'mita xavfsizlik choralari rioya etilishini nazorat qiladi.

8.4 Barcha ishtirokchilar va tashrif buyuruvchilar:

- tinchlik va tartibni saqlashi;
- ma'muriyatning qonuniy ko'rsatmalariga rioya qilishi;
- inshoot va asbob-uskunalaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi;
- boshqalarga xavf tug'dirmaslik uchun o'zini mas'uliyatli tutishi;
- yosh bolalarni qarovsiz qoldirmasligi lozim.

9. QO'SHIMCHA QOIDALAR

9.1 Musobaqaning maxsus qoidalarini va reglamentlari rasmiy sayt orqali e'lon qilinadi.

9.2 Tashkiliy Qo'mita musobaqa reglamentlariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

9.3 Ushbu nizomda nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda, Tashkiliy Qo'mitaning qarori ustuvor hisoblanadi.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1 Barcha ishtirokchilar musobaqani o'tkazish va xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni tashkilotchilar va vakolatli xavfsizlik xodimlari talabiga binoan taqdim etishlari shart.

10.2 Musobaqa davomida ishtirokchilar tashkilotchilar tomonidan taqdim etilgan axborot nishoni bilan bo'lishi kerak.

10.3 Ishtirokchi o'z kompyuterining texnik sozligi va dasturiy ta'minotning to'g'ri ishlashi uchun shaxsan javobgardir.

11. NATIJALARNI UMUMLASHTIRISH VA TAQDIRLASH

11.1 Musobaqa g'oliblari musobaqaning har bir yo'nalishi bo'yicha tegishli tartibda aniqlanadi.

11.2 Har bir yo'nalishda uchta sovrinli o'rin belgilanadi. I, II va III o'rinlarni egallagan tanlov g'oliblari diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

11.3 Maxsus nominatsiyalar yoki alohida e'tirof etilgan ishlanmalar uchun homiyalar tomonidan esdalik sovg'alari berilishi mumkin.

11.4 Tashkilotchilar tomonidan barcha ishtirokchilar va ularning rahbarlariga qatnashganligi uchun sertifikatlar topshiriladi.

11.5 Tashkiliy Qo'mita musobaqa sovrinlari yoki maxsus mukofotlar ro'yxatini kengaytirish huquqiga ega.

**Ushbu nizom musobaqa boshlanishiga kamida 30 kun qolganida o'zgartirilishi mumkin. O'z o'rnida yangilangan nizom barcha ro'yhatdan o'tgan ishtirokchilarga taqdim etiladi.*

“3D MODELLASH” tanlovi REGLAMENTI

Qatnashuvchilar yoshi: 16-30 yosh

1-bosqich: Saralash bosqichi reglamenti

Qurilma va vositalar: kompyuter, AutoCAD dasturi

Umumiy qoidalar: Saralash bosqichi ishtirokchilariga shaxsiy kompyuterdan foydalanish ruxsat etiladi.

1-bosqich o'takazish joyi: Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

1. Musobaqa shartlari:

1.1 Taqdim etilgan namuna-chizmalarni eng qisqa vaqt ichida AutoCAD dasturi muhitida takrorlash, belgilangan holatlarda umumiy (3D) ko'rinishini yaratish.

1.2 Barcha bosqichdagi topshiriqlar qat'iy ravishda AutoCAD dasturiy muhitida bajarilishi shart.

1.3 Vazifani bajarish uchun maksimal 60 minut vaqt beriladi.

1.4 Savollar yoki nosozliklar yuzaga kelganda hakamlardan boshqa hech kim bilan muloqot qilish mumkin emas.

1.5 Yakuniy chizmalar AutoCAD dasturi muhitida baholash uchun - .dwg formatda taqdim etilishi lozim.

1.6 Kompyuter vositalaridan musobaqadan tashqari maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi.

1.7 Vazifani bajarish uchun harakatlanish faqat hakam ishorasi bilan amalga oshiriladi.

1.8 Hakam raund tugaganligi ishorasini amalga oshirgandan keyin, ishtirokchilarning har qanday harakati (klavishlarni bosish, kompyuter sichqonchasini harakatlantirish va b.) taqiqlanadi.

1.9 Saralash bosqichi natijalari asosida 50 nafar ishtirokchi 2-bosqich (final bosqichi) ga yo'l oladi.

2. Hakamlik:

2.1 Tashkiliy qo'mita musobaqalar qoidalariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega (agar kiritiladigan o'zgarishlar biror ishtirokchiga ustunlik bermaydigan bo'lsa).

2.2 Musobaqani nazorat qilish va natijalarni e'lon qilish hakamlar hay'ati tomonidan amalga oshiriladi.

2.3 Hakamlar musobaqa davomida to'liq vakolatga ega bo'lib, ishtirokchilar ularning qarorlariga bo'ysunishlari lozim.

2.4 Hakam bahsli holatlar uchun qo'shimcha raundlar tashkil etishi mumkin.

2.5 Chetdan aralashuvlar yoki kompyuter vositasining nosozligi tufayli ishtirokchi bosqichni tugata olmagan taqdirda, hakamlar qarori bilan qayta raund o'tkazilishi mumkin.

2.6 Hakam qaroridan norozi bo'lgan ishtirokchi qarorni izohlashni og'zaki ravishda so'rashi mumkin. Hakam qarorini reglamentga muvofiq asoslashga majbur.

3. Diskvalifikatsiya (chetlashtirish) shartlari:

3.1 Ishtirokchi quyidagi holatlarda musobaqadan chetlatilishi mumkin:

- vazifani bajarishda oldindan tayyorlangan yoki internet tarmoqlaridan olingan tayyor chizmalardan va modellardan foydalangan bo'lsa;
- vazifani bajarish jarayonida boshqa shaxslarning yordamidan foydalangan bo'lsa;
- musobaqa tashkilotchilarining xavfsizlik talablariga rioya etmasa.

4. G'olibni aniqlash qoidalari:

4.1 Vazifalarni to'liq va xatolarsiz bajarish uchun eng kam vaqt sarflagan ishtirokchi g'olib hisoblanadi.

4.2 Bajarilgan vazifalar baholanadi va eng yaxshi natijalar hisobga olinadi.

4.3 Raundlar soni saralash bosqichi ishtirokchilari sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

4.3 Eng yaxshi natijalarga erishgan 50 nafar ishtirokchilar final bosqichida qatnashishga muvofiq bo'ladi.

2-bosqich: Final bosqichi reglamenti

Qurilma va vositalar: Shaxsiy kompyuter (noutbuk),

Umumiy qoidalar: Final bosqichiga chiqqan 50 nafar ishtirokchidan 3 nafar (1-, 2-, 3- o'rin) g'oliblari aniqlanadi. Musobaqaning final bosqichida ishtirok etuvchilar o'z shaxsiy kompyuterlari (noutbuklari) bilan qatnashishlari lozim.

1. Musobaqa shartlari:

1.1 Taqdim etilgan namuna-chizmalarni eng qisqa vaqt ichida AutoCAD dasturi muhitida takrorlash, belgilangan holatlarda umumiy (3D) ko'rinishini yaratish.

1.2 Barcha bosqichdagi topshiriqlar qat'iy ravishda AutoCAD dasturiy muhitida bajarilishi shart.

1.3 Savollar yoki nosozliklar yuzaga kelganda hakamlardan boshqa hech kim bilan muloqot qilish mumkin emas.

1.4 Kompyuter vositalaridan musobaqadan tashqari maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi.

1.5 Vazifani bajarish uchun harakatlanish faqat hakam ishorasi bilan amalga oshiriladi.

1.6 Hakam raundning ishtirokchilari orasidan vazifani eng qisqa vaqt ichida, to'liq bajargan ishtirokchi aniqlangandan keyin raund tugaganligi ishorasini amalga oshirada.

1.6 Hakam raund tugaganligi ishorasini amalga oshirgandan keyin, ishtirokchilarning har qanday harakati (klaviatura tugmachalarini bosish, kompyuter sichqonchasini harakatlantirish) taqiqlanadi.

2. Hakamlilik:

2.1 Tashkiliy qo'mita musobaqalar qoidalariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega (agar kiritiladigan o'zgarishlar biror ishtirokchiga ustunlik bermaydigan bo'lsa).

2.2 Musobaqani nazorat qilish va natijalarni e'lon qilish hakamlar hay'ati tomonidan amalga oshiriladi.

2.3 Hakamlar musobaqa davomida to'liq vakolatga ega, ishtirokchilar ularning qarorlariga bo'ysunishlari lozim.

2.4 Hakam bahsli holatlar uchun qo'shimcha raundlar o'tkazishi mumkin.

2.5 Chetdan aralashuvlar yoki kompyuter vositasining nosozligi tufayli ishtirokchi bosqichni tugata olmagan taqdirda, hakamlar qarori bilan qayta raund o'tkazilishi mumkin.

2.6 Hakam qaroridan norozi bo'lgan ishtirokchi qarorni izohlashni og'zaki ravishda so'rashi mumkin. Hakam qarorini reglamentga muvofiq asoslashga majbur.

3. Diskvalifikatsiya (chetlashtirish) shartlari:

3.1 Ishtirokchi quyidagi holatlarda musobaqadan chetlatilishi mumkin:

- vazifani bajarishda oldindan tayyorlangan yoki internet tarmoqlaridan olingan tayyor chizmalardan va modellardan foydalangan bo'lsa;
- vazifani bajarish jarayonida boshqa shaxslarning yordamidan foydalangan bo'lsa;
- musobaqa tashkilotchilarining xavfsizlik talablariga rioya etmasa.

4. G'olibni tanlash qoidalar:

4.1 Vazifalarni to'liq va xatolarsiz bajarish uchun eng kam vaqt sarflagan ishtirokchi g'olib hisoblanadi.

4.2 Bajarilgan vazifalar baholanadi va eng yaxshi natijalar hisobga olinadi.

4.3 Raundlar soni saralash bosqichi ishtirokchilari sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

4.3 Eng yaxshi natijalarga erishgan 3 nafar ishtirokchi (1-, 2-, 3- o'rin) g'olib bo'ladi.